



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 9-oktabr

521-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 23-sentyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Paxta xomashyosi yetishtiruvchilarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 13-sentyabrdagi 574-son qarori ijrosi haqida”gi 440-6-0-Q/24-sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Paxta xomashyosi yetishtiruvchilarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 13-sentyabrdagi 574-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 23-sentyabrdagi 440-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash, shuningdek, jahon bozorida paxta tolasiga talab va taklif o‘zgarishlari natijasida paxta tolasining narxlarini 2024-yil hosili prognoz narxlariga nisbatan pasayib ketganligi sababli viloyatdagi paxta xomashyosi yetishtiruvchilarning kafolatli miqdorda daromad olishlarini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 23-sentyabrdagi 440-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-sentyabrdagi 574-son qarori bilan: Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklarining jahon bozorida paxta tolasining narxi keskin pasayishi natijasida yuzaga kelgan vaziyatda paxta yetishtiruvchilar va qayta ishlovchilarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida ishlab chiqilgan quyidagi:

paxta yetishtiruvchilar tomonidan birja savdolari orqali realizatsiya qilingan (elektron xisob-faktura asosida) bir tonna paxta xomashyosi (paxta-to‘qimachilik korxonalarini tomonidan yetishtirilgan paxta xomashyosi hamda urug‘lik paxta bundan mustasno) uchun Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan Qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda - jamg‘arma) mablag‘lari hisobidan 1 mln.so‘m miqdorida subsidiya ajratish;

2024-yil uchun paxta yetishtiruvchilar va qayta ishlovchilar o‘rtasida birja savdolarida tuzilgan shartnomalar bo‘yicha qo‘shimcha kelishuv tuzish, bunda paxta xomashyosining sotish narxi 6 mln. 800 ming so‘mdan kam bo‘lmasligini inobatga olish;

2024-yil hosilidan fyuchers shartnomalaridan tashqari paxta xomashyosini birja savdolariga chiqarishda uning boshlang‘ich narxini bir tonnasi uchun 6 mln. 800 ming so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorida e‘lon qilish;

2024-yilda barcha hududlarda paxta terish mashinalari tomonidan terilgan har bir tonna paxta xomashyosini yig‘ib-terib olish xizmati bahosining 20 foizini, biroq 250 ming so‘mdan oshmagan qismini Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan qoplab berish takliflari ma‘qullanganligi;

Jamg‘arma Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari tomonidan taqdim etilgan reestrga asosan ikki bank ish kunida subsidiyani paxta yetishtiruvchilarning maxsus hisob varaqlariga (23410) to‘lab berish uchun tegishli tijorat banklariga mablag‘larni o‘tkazib berishi;

O‘rnatilgan tartibga muvofiq;

mazkur qaror doirasida ajratilgan subsidiya birinchi navbatda paxta yetishtiruvchilarning 2024-yil hosili paxta xomashyosini yetishtirish uchun olgan imtiyozli kreditlar bo‘yicha qarzdorligini so‘ndirishga

yo'naltirilishi, bunda, imtiyozli kreditlar bo'yicha qarzdorlikni so'ndirish uchun to'langan mablag'lar tijorat banklarining Jamg'arma oldidagi qarzdorligini qoplashga yo'naltirilishi;

imtiyozli kreditlar bo'yicha qarzdorlik qoplangandan so'ng, subsidiya soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorlikni qoplashga yo'naltirilishi, qolgan mablag'lar paxta yetishtiruvchilarning asosiy hisob varag'iga o'tkazib berilishi;

subsidiya to'lash uchun ajratiladigan mablag'larning hisob varaqlardagi debet aylanmasidan bank xizmatlari uchun haq undirilmasligi;

qaror doirasida subsidiya uchun ajratiladigan mablag'lar O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga asosan soliq solishda hisobga olinmaydigan daromad (aylanma) hisoblanishi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi Jamg'armaning mazkur qaror doirasida yuzaga keladigan qo'shimcha xarajatlarini qoplash uchun Jamg'armaga Davlat byudjetidan 5 yil muddatga 3,5 trln. so'mgacha foizsiz byudjet ssudasi ajratishi;

Qishloq xo'jaligi vazirligi, Jamg'arma hamda Markaziy bankning 2024-yil hosili paxta yigim-terimini qisqa muddatlarda tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 25-iyuldagi 452-son qaroriga asosan sog'lomlashtirilayotgan paxta-to'qimachilik klasterlari bilan 2024-yil hosili bo'yicha shartnoma (fyuchers, spot va vaqtincha saqlashga) tuzgan fermer xo'jaliklariga, shuningdek, o'z yer maydonlarida paxta xomashyosi yetishtirgan paxta-to'qimachilik klasterlari va fermer xo'jaliklariga yig'im-terim xarajatlarini moliyalashtirish uchun Jamg'arma resurslari hisobidan imtiyozli kreditlar ajratish to'g'risidagi takliflari ma'qullanganligi;

Bunda imtiyozli kreditlar elektron tarozi orqali qabul qilingan paxta xomashyosi uchun - 10 oy muddatga, yillik 10 foiz stavkada (2 foiz bank marjasi) paxta qiymatining 20 foizi miqdorida 3 oylik imtiyozli davr va so'nggi 7 oyda teng ulushlarda qaytarish sharti bilan ajratilishi;

Belgilanishicha, paxta xomashyosi narxlarini shakllanishiga davlat boshqaruvi, shu jumladan, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining aralashuvi qat'iy man etilganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 12-dekabrda PF-205-son Farmoniga muvofiq;

2024-yildan boshlab paxta xomashyosini yetishtiruvchi xo'jaliklar (keyingi o'rinlarda paxta yetishtiruvchilar) va klasterlar hamda paxta xomashyosini qayta ishlash va ip kalava ishlab chiqarish zanjiriga ega to'qimachilik korxonalarini (keyingi o'rinlarda - qayta ishlovchilar) o'rtasida paxta xomashyosini yetkazib berish bo'yicha fyuchers shartnomalari tuproq hosildorligi normativlari doirasida O'zbekiston Respublikasi tovar-xom ashyo birjasining "paxta xomashyosi seksiyasi"da har bir hudud bo'yicha alohida o'tkaziladigan savdolar natijalariga ko'ra tuzilganligi;

fyuchers shartnomasiga muvofiq yetkazib berilishi lozim bo'lgan hajmdan ortiqcha yetishtirilgan, shuningdek qayta ishlovchilar bilan fyuchers shartnomasi tuzmagan holda, o'z mablag'lari, shu jumladan, jalb qilingan mablag'lari va tijorat kreditlari hisobiga yetishtirilgan paxta xomashyosi yetishtiruvchilar tomonidan birja orqali tadbirkorlik subyektlariga sotilishi yoki (va) qayta ishlanishi;

2024-yil hosili yig'im-terim davrida jahon bozorida paxta tolasining shakllangan fyuchers kotirovkalari bo'yicha paxta hom ashyosining boshlang'ich fyuchers narxlarini bir tonnasi uchun 6 mln. 800 ming so'm atrofida shakllanayotganligi;

v) O'zbekiston Respublikasi tovar-xom ashyo birjasida 2024-yil hosilidan birinchi nav ikkinchi sinf bir tonna paxta xomashyosining boshlang'ich fyuchers narxi, jahon bozorida paxta tolasini kotirovkalaridan kelib chiqib 7 mln. 800 ming so'm miqdorida e'lon qilinganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. Tuman hokimining o'rinbosari (B.Mo'ydinov) paxta yetishtiruvchilar va qayta ishlovchilar o'rtasida tuzilgan qo'shimcha kelishuvlarni (miqdor va narx bo'yicha) birja savdolari elektron axborot tizimida bir hafta muddatda ro'yxatga olinishini ta'minlasin.

5. Tuman hokimining o'rinbosari (B.Mo'ydinov), davlat soliq inspeksiyasi (J.Anvarov), Qishloq xo'jaligi bo'limi (A.Xakimov), Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi tuman bo'limi (M.Usmanov), paxta-to'qimachilik klaster korxonalarini bilan birgalikda qayta ishlovchilarga yetkazib berilgan paxta xomashyosi bo'yicha ilovaga muvofiq namunaviy shaklda paxta yetishtiruvchilar kesimida tasdiqlangan reestrni 2024-yil 1-dekabr qadar Jamg'armaga hamda tegishli tijorat banklariga taqdim etilishini ta'minlasin.

6. Tuman hokimining o'rinbosari (B.Mo'ydinov) paxta-to'qimachilik klasterlari va fermer xo'jaliklari o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yilishiga hamda yuzaga keladigan muammoli masalalarni tezkor hal qilinishiga shaxsan javobgar ekanligi belgilab qo'yilsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Abdusalomov va tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari B.Mo‘ydinov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov